

YANGI SO‘ZLARNI O‘ZLASHTIRISHDA SHAKLNING AHAMIYATI

Salimova Dildora Furqat qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti
furqatovnadildor@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0002-8572-8289>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18985210>

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh bolalar tomonidan so‘z o‘zlashtirish jarayonida shakl ustunligi hodisasi tahlil qilinadi. Shuningdek, bolalar yangi otlarni umumlashtirishda obyektning xususiyatidam ko‘ra shakliga tayanishni ustuvor belgi sifatidagi qabul qilishi ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada ushbu yondashuvni asoslab bergan tadqiqotlar tahlil qilinib, shakl ustunligining yoshga bog‘liqligi hamda obyekt turiga (jonli va jonsiz, qattiq va suyuq) ko‘ra farqlanishi muhokama qilinadi. Shuningdek, bolalarning faqat shakl o‘xshashligiga emas, obyektning xususiyatiga ham e‘tibor qaratishi haqida dalillar keltiriladi. So‘z o‘zlashtirish jarayoni kognitiv hamda konseptual omillarga ham tayanishi haqidagi xulosa ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: til rivojlanishi, so‘z o‘zlashtirish, shakl ustunligi, so‘z shakli, so‘z kengaytirish

Abstract: This article analyzes the phenomenon of the shape bias in young children’s word acquisition. In particular, it highlights that when generalizing novel nouns, children tend to rely more on an object’s shape than on its other properties, treating shape as the primary feature for categorization. The paper reviews and analyzes studies that have provided empirical support for this approach, discussing how the shape bias varies depending on age and object type (animate vs. inanimate; solid vs. non-solid). In addition, evidence is presented showing that children attend not only to shape similarity but also to other object properties. The article concludes that word acquisition is influenced not only by perceptual factors but also by cognitive and conceptual processes.

Keywords: lexical development, word acquisition, shape bias, noun generalization, word extension

Аннотация: В данной статье анализируется феномен «предпочтения формы» (shape bias) в процессе усвоения слов у детей раннего возраста. В частности, показано, что при обобщении новых существительных дети склонны опираться преимущественно на форму объекта, рассматривая её как основной признак по сравнению с другими характеристиками. В статье проводится анализ исследований, обосновывающих данный подход, а также обсуждается зависимость предпочтения формы от возраста и типа объекта (одушевлённые и неодушевлённые; твёрдые и жидкие). Кроме того, приводятся данные, свидетельствующие о том, что дети ориентируются не только на сходство формы, но и учитывают другие свойства объекта. Делается вывод о том, что процесс усвоения слов опирается не только на перцептивные, но и на когнитивные и концептуальные факторы.

Ключевые слова: лексическое развитие, усвоение слов, предпочтение формы, обобщение существительных, расширение значения слова

Kirish

Hayotning dastlabki bir necha yilida bolalar turli xil narsa-buyumlarni ifodalovchi yuzlab so‘zlarni o‘rganadilar. Shaklga e‘tibor kundalik hayotda obyektlarni tanib olish va yosh bolalar nutqida ustunlik qiladigan otlar uchun muhimdir. Ko‘plab tadqiqotlar muvaffaqiyatli ot o‘rganish uchun shaklning ahamiyatini aniqlashga bag‘ishlangan. Yosh bolalar otlarning xususiyatlaridan ko‘ra, obyektning shakliga, tashqi ko‘rinishiga e‘tibor qaratishi haqidagi fikrlarni qo‘llab-quvvatlovchi ma‘lumotlar mavjud. Leksik rivojlanish uzoq vaqtdan beri tilshunoslarning e‘tiborini tortib kelgan. Ular turli davrlarda so‘z boyligini o‘zlashtirish qonuniyatlari, dastlabki lug‘at tarkibi va til o‘rganayotgan bola foydalanayotgan so‘zlarning kattalar grammatikasidagi toifalari kabi masalalarga e‘tibor qaratishgan.

Bloom ta‘kidlashicha, so‘z o‘rganish jarayoni ma‘lum kognitiv va lingvistik qobiliyatlar mahsulidir. Bu qobiliyatlar tushunchalarni o‘zlashtirish, ma‘noga oid sintaktik belgilarni tushunish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

3 va 4 yoshli bolalarga biror narsa haqida yangi ma’lumotlar o‘rgatilganda (masalan, qarg‘a) ular bu bilimlarni tashqi ko‘rinishi sezilarli farq qilsa ham (masalan, flamingo) o‘sha turdagi boshqa narsalarga ham qo‘llaydilar, lekin tashqi ko‘rinishi o‘xshash bo‘lsa ham boshqa turdagi narsalarga (masalan, ko‘rshapalak) qo‘llamaydilar. Landau va uning hamkasblari o‘tkazgan tadqiqoti shaklning o‘ziga xosligi, til o‘rganishning nisbatan erta bosqichida leksik hodisa sifatida boshlanishini ko‘rsatadi. Rivojlanish davom etgani sayin shaklning alohida ahamiyati tildan foydalanish doirasidan chiqib, umumiy obyektlarni turkumlashtirishga sabab bo‘ladi. Landau va uning hamkasblari ta’kidlashicha, shaklga e’tibor sanaladigan otlarni o‘rganishda paydo bo‘lishi mumkin, ammo rivojlanish davomida shaklga e’tibor aniq leksik bo‘lmagan tasniflash vazifalariga kengroq qo‘llanishi mumkin. Dastlabki til o‘rganuvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan ko‘plab so‘zlar aslida dunyoni undagi narsalarning shakllariga qarab ajratadi. Ikki yoshli til o‘rganuvchisi uchun rasmiy kitobdagi sariq mashina va ko‘k rangli o‘yinchoq mashina hamda televizordagi “gapiradigan” mashinaning barchasi “mashina” deb ataladi. Ushbu vaziyat avtomobillarning barchasi o‘xshash vazifa hamda shakldagi o‘xshashlik natijasida yuzaga kelgan. Sigirni it deb atash kabi haddan tashqari kegapiradiganlar juda kam uchraydi va faqat tilni o‘zlashtirishning dastlabki bosqichlarida kuzatiladi.

Shakl asosida yangi so‘zlarni kengaytirish qoidasi faqat dastlabki so‘zlar obyektlarni shaklga ko‘ra ajratadigan holatdagina ishlaydi.

Bolalar dastlabki 30 ta so‘zni sekin-asta o‘zlashtiradilar, ammo keyinchalik bu jarayon sezilarli ravishda tezlashadi. Bolalar har kuni 10-20 ta yangi so‘zni o‘rganib, oxir-oqibat taxminan 30 000 so‘zni o‘zlashtiradilar. Kichik yoshdagi bolalar ko‘pincha so‘zlarni ko‘rsatib ta’riflash orqali o‘rganadilar, ammo bu yondashuv har qanday aniq so‘zga cheksiz talqinlar berish imkonini yaratadi. Shu sababli, bolalarda yangi o‘rgangan so‘zlarning haqiqiy ma’nosini ajratib olish usullari shakllanishi lozim. Bu usullar keyinchalik so‘zlarni tez o‘zlashtirishga asos bo‘ladi deb taxmin qilinadi. So‘nggi tadqiqotlar so‘z o‘zlashtirishning tezlashgan davrida bolalar qo‘llaydigan usullarni chuqur o‘rgangan. Bu usullar sintaktik belgilardan foydalanish, leksik qarama-qarshilik va ayrim idrok belgilariga tanlab e’tibor qaratishni o‘z ichiga oladi. Landau va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot (1988) shuni ko‘rsatdiki, 2 va 3 yoshli bolalar kattalar bilan bir qatorda, o‘lchami yoki tuzilishi sezilarli farq qilsa ham, yangi sanoq otlarini yangi holatlarga qo‘llash uchun “bir xil shakl” mezonidan foydalanishgan. Ushbu “shakl ustunligi” 2 yoshli bolalarda 3 yoshli bolalar va kattalarga nisbatan kamroq namoyon bo‘lgani kuzatilgan. Shaklga e’tibor faqat so‘z qo‘llashga qaratilgan edi. Nomlanmagan narsalarni turkumlash buyurilganda, bolalar tekstura va o‘lchamini ham hisobga olishgan, bu esa shakl ustunligi umumlashtirilgan idrok xususiyati emas, balki so‘z bilimi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. 2 yoshli bolalar 3 yoshli bolalar bilan bir xil shakldagi mezonni doimiy qo‘llamaganligi, uning uchinchi yil davomida hali rivojlanayotganini anglatadi. Ushbu tadqiqot shakl ustunligining umumiyligini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, 3 yoshli bolalar doimo shaklni afzal ko‘rishadimi va qanday sharoitlarda ular tekstura kabi boshqa o‘lchamlarni ham hisobga olishlari mumkinligini tekshiradi. Shuningdek, u rivojlanish jarayonida shakl ustunligi yanada mustahkamlanishini o‘rganadi. Tadqiqotda “ko‘zlar”ning mavjudligi kabi stimullar xususiyati shakl ustunligini qanday o‘zgartirishi mumkinligi maxsus o‘rganilgan. Ko‘zlar chaqaloqlik davridan boshlab idrok etish ahamiyati va turli shakl o‘zgarishlariga uchraydigan jonli obyektlar bilan kuchli bog‘liqligi tufayli xususiyat sifatida qaraladi. Tadqiqotda bolalar shakldan yangi obyekt nomlarini o‘zlashtirish uchun foydalansalar-da, bu usul mutlaq emasligini va boshqa idrok xususiyatlari, ayniqsa “ko‘zlar” kabi muhim hayotiy bog‘lanishlarga ega bo‘lgan xususiyatlar ta’sir qilishi mumkinligini ta’kidlaydi hamda ana shu qo‘shimcha xususiyatlar qanday sharoitda ta’sir etishini yoritishga harakat qilinadi. Tadqiqot kichik yoshdagi bolalarning narsalarni tasniflash va notanish nomlarni umumlashtirish usullarini o‘rgandi. Natijalar bolalarning leksik o‘zlashtirish strategiyalari qanchalik moslashuvchan ekanligini ko‘rsatib, ularning turli idrok xususiyatlariga tayanishni vaziyatga qarab o‘zgartira olish qobiliyatini namoyon etdi. Ko‘zlarning kiritilishi 3 yoshli bolalarda 2 yoshlilarga qaraganda bir xil shaklni tanlashning ko‘proq kamayishiga olib keldi. Nomlash obyektlarida ko‘zlar mavjud bo‘lganda, tekstura sinovlari paytida 3 yoshlilarning shakl xususiyatini kamaytirdi. Ko‘zlar qo‘shilganda bolalarning afzalliklari o‘zgardi: taxminan yarmi o‘lchamini o‘zgartirishdan ko‘ra shaklni o‘zgartiradigan narsalarni, qolgan yarmi esa tuzilishni o‘zgartirishdan ko‘ra shaklni o‘zgartiradigan narsalarni afzal ko‘rdi. 2 yoshlilar uchun o‘rdak stikerlari va ko‘zlar shakl xususiyatiga bir xil darajada ta’sir ko‘rsatdi. Bu ko‘zlarning kichik yoshdagi bolalarga ta’siri ko‘zlar haqidagi aniq bilimlar bilan bog‘liq bo‘lmashligi mumkinligini ko‘rsatadi. 3 yoshlilar misolida o‘rdak stikerlari ham shakl xususiyatini kamaytirdi, ammo ko‘zlarning mavjudligi ularning leksik tasniflashda shaklga e’tibor qaratishiga ko‘proq ta’sir etdi. Ko‘zlar qo‘shilgandan so‘ng, 3 yoshlilarning tuzilishini o‘zgartiradigan buyumlarni qabul qilishi sezilarli darajada pasayib, shaklni o‘zgartiradigan buyumlar kabi past darajaga

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

tushdi. 2 yoshlilar uchun ko‘zlar shakl xususiyatini kuchaytirdi va tuzilishga e‘tiborni oshirdi. 3 yoshlilarda esa ko‘zlar bir xil shaklning kuchli mezonini kamaytirmasdan teksturaga e‘tiborni kuchaytirdi. Ko‘zlar ishtirokidagi stimullar uchun shakl va tuzilish xususiyati aynan leksik hodisalar edi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, kichik yoshdagi bolalarda shakl xususiyati nomlash vazifalarining muhim jihati hisoblanadi, ammo u yagona hodisa emas. Bu bolalar idrok xususiyatlari bilan predmet toifalari o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘risidagi umumiy shartli qoidalarni o‘zlashtirishini va bu bilan so‘z o‘rganishni osonlashtirishini ko‘rsatadi.

Tilshunos Kruz o‘g‘li Pyerning ikki yoshligida rang nomlarini umuman ishlatmaganini, garchi ota-onasi bolaga murojaat qilganda rang so‘zlarini tez-tez ishlatmalar-da, bola ranglardan ko‘ra shakl nomlarini ifodalovchi so‘zlarni (doira, kvadrat va uchburchak) yaxshi o‘zlashtirganini qayd etadi. Jonsonning bola nutqi rivojlanishi bo‘yicha olib borgan keng qamrovli tadqiqotlaridan birida o‘rtacha ikki-uch yoshli bolalarning 50 foizdan kamrog‘i, 4 yoshli bolalarning esa 75 foizi to‘rtta asosiy rang nomlarini (qizil, sariq, yashil va ko‘k) bilishlari, 3 yoshdan 5 yoshgacha bolalarning esa shakl nomlarini rang nomlariga qaraganda ancha yaxshi bilishlarini ta‘kidlaydi. Bornstein uch yoshli bolalarning rang hamda shakl nomlarini o‘zlashtirishini o‘rganish maqsadida tadqiqot o‘tkazadi. 16 nafar uch yoshli bolalarga ikkita stimullar to‘plam tadqiqot etiladi. Birinchi to‘plam geometrik shakl: kvadrat, uchburchak va doira hamda ikkinchi stimullar to‘plam esa ko‘k, yashil, sariq ranglardan iborat edi. Dastlabki tahlil shuni ko‘rsatadiki, mashg‘ulot tartibi, bolaning sevimli rangi yoki shakli, shuningdek, bolaning to‘g‘ri rang va shakl nomlarini bilishi o‘rganish samardorligiga ta‘sir ko‘rsatmaydi. Deyarli barcha bolalar 4 tadan shakl-nom assotsiatsiyalarini o‘rgangan bo‘lsa-da, bolalarning deyarli uchdan bir qismi (30%) 36 ta sinovda ham rang assotsiatsiyalarini o‘rgana olishmaydi. Shuningdek, uch yoshli bolalar shakl nomlarini rang nomlariga qaraganda ancha tezroq o‘rganishadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bolalar otlarni o‘zlashtirish darajasini oshirgan sari, yangi so‘z vazifasida shaklga bo‘lgan e‘tiborlari ham kuchayib borgan. Tadqiqot bolaning narsa shakliga e‘tiborining kuchayishi va yangi otlarni o‘zlashtirish tezligining oshishi o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Bu esa ushbu ikki hodisa o‘rtasidagi rivojlanish jarayonining o‘zaro aloqadorligini isbotlaydi. Yosh bolalar nutqidagi so‘zlar ko‘pincha shakl bilan bog‘liq. Tadqiqot bolalarning dastlabki 100 ta otni o‘zlashtirishlarini, yangi nomlarni umumlashtirishda shaklning ta‘siri hamda yangi ot turkumiga mansub so‘zlarning o‘sish sur‘atini kuzatib boradi. Shaklga e‘tibor qaratish dastlabki so‘z o‘zlashtirishda namoyon bo‘ladi, bu esa 50 va 100 ta ismni bilish bosqichlari orasida sodir bo‘ladi. Bolalar lug‘ati kengaygani sayin narsa-predmetlarni shakli bo‘yicha aniqlash va shakliga qarab turkumlash uchun yangi belgilardan foydalanishga moyillik ko‘rsatdilar. Tadqiqot bolalarning obyekt shakliga bo‘lgan e‘tiborlilik va ot turkumidagi so‘zlarning o‘zlashtirishidagi tezlashish bilan bog‘liq mustahkam rivojlanish aloqasi borligi haqida aniq dalillar keltiradi.

Ushbu dalillar tushunchalarni ifodalashda idrok bilan bog‘liq bo‘lmagan omillar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, yosh bolalar predmetlarni nomlashda ularning shakliga alohida e‘tibor qaratishadi. Bu shakliy moyillik so‘z o‘rganish jarayonida muhim ekanligini anglatadi. Shuningdek, so‘z o‘zlashtirish jarayoni faqat shaklga moyillik asosida emas, balki kognitiv va konseptual omillar ta‘sirida shakllanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bloom, P. (2001). Précis of How Children Learn the Meanings of Words. *Behavioral and Brain Sciences*, 24(6), 1095–1103. <https://doi.org/10.1017/S0140525X01000139>
2. Landau, B., Smith, L. B., & Jones, S. S. (1988). The importance of shape in early lexical learning. *Cognitive Development*, 3(3), 299–321.
3. Jones, S. S., Smith, L. B., & Landau, B. (1991). Object properties and knowledge in early lexical learning. *Child Development*, 62(3), 499–516.
4. Bornstein, M. H. (1985). Colour-name versus shape-name learning in young children. *Journal of Child Language*, 12(2), 387–393.
5. Gershkoff-Stowe, L., & Smith, L. B. (2004). Shape and the first hundred nouns. *Child Development*, 75(4), 1098–1114.
6. Golinkoff, R. M., Shuff-Bailey, M., Olguin, R., & Ruan, W. (1995). Young children extend novel words at the basic level: Evidence for the principle of categorical scope. *Developmental Psychology*, 31(3), 494–507.
7. Halberda, J. (2002). The development of a word-learning strategy. *Cognition*, 87(1), B23–B34. [https://doi.org/10.1016/s0010-0277\(02\)00186-5](https://doi.org/10.1016/s0010-0277(02)00186-5)